


# FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2023-YIL YANVAR-IYUN  
OYLARIDA ASOSIY  
KAPITALGA  
INVESTITSIYALAR



# ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR




2023-yilning yanvar-iyun oylarida 8352,6 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 58,9%i yoki 4918,2 mlrd. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 41,1 % yoki 3434,4 mlrd. so'm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2022-yildagi ulushiga nisbatan 5,1% punktga ko'paydi, 15,0 %ni yoki 1256,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 7096,6 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 85,0 % o'zlashtirilib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,1% punktga kamaydi.

# MOLIYALASHTIRISH MANBALARI BO'YICHA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR



## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, mld.so'm



2023-yilning yanvar-iyun oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 1505,0 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 18,0 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 23,1 % i yoki 1929,3 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.


To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1641,1 mlrd. so'm bilan 19,6 %ni tashkil etdi.

## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar


	Investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm	Markazlashgan investitsiyalar, %da	Markazlashmagan manbalar, %da
Farg'ona viloyati	8 352,6	15,0	85,0
Farg'ona sh.	2 050,5	32,5	67,5
Qo'qon sh.	474,7	1,2	98,8
Quvasoy sh.	222,5	7,9	92,1
Marg'ilon sh.	381,4	2,4	97,6
Oltiariq	428,0	23,0	77,0
Qo'shtepa	580,2	4,3	95,7
Bag'dod	217,8	12,0	88,0
Buvayda	208,4	2,6	97,4
Beshariq	435,3	4,9	95,1
Quva	259,0	7,2	92,8
Uchko'prik	761,6	2,6	97,4
Rishton	421,8	18,3	81,7
So'x	45,9	36,7	63,3
Toshloq	435,1	9,0	91,0
O'zbekiston	452,5	6,4	93,6
Farg'ona t	422,3	19,5	80,5
Dang'ara	297,6	10,8	89,2
Furqat	71,9	15,5	84,5
Yozyovon	186,1	29,6	70,4

Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 537,7 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 6,5 % ini tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 2,5 % punktga kamaydi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 111,6 mlrd.so'm (1,3 % va 2,4 % punktiga kamaydi), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 1483,5 mlrd. so'm (17,8 % va 8,4 % punktga kamaydi), Respublika budgeti 1030,7 mlrd. so'm (12,3 % va 7,0 % punktga ko'paydi), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 113,8 mlrd. so'm (1,4 % va 0,5 % punktga ko'paydi) miqdorida asosiy kapitalga inestitsiyalar o'zlashtirildi.

## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, %da



- Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi
- bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari




Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalastirish manbalari bo'yicha yuqori ko'rsatkich aholi mablag'i investitsiyalarda kuzatilib, 2022 - yilning mos davriga nisbatan 10,7 %ga ko'paydi.

## 2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Investitsiyalar hajmi, mlrd. soʻm	Oʼsish surʼati, %da	Viloyatida ulushi, %da
Fargʼona viloyati	<b>8 352,6</b>	<b>114,9</b>	<b>100,0</b>
Fargʼona sh.	2 050,5	113,4	24,5
Qoʼqon sh.	474,7	93,1	5,7
Quvasoy sh.	222,5	120,9	2,7
Margʼilon sh.	381,4	205,6	4,6
Oltiariq	428,0	154,9	5,1
Qoʼshtega	580,2	85,2	6,9
Bagʼdod	217,8	105,4	2,6
Buvayda	208,4	107,4	2,5
Beshariq	435,3	114,5	5,2
Quva	259,0	165,8	3,1
Uchkoʼprik	761,6	136,9	9,1
Rishton	421,8	166,4	5,1
Soʼx	45,9	49,7	0,5
Toshloq	435,1	106,0	5,2
Oʼzbekiston	452,5	89,2	5,4
Fargʼona t	422,3	164,4	5,1
Dangʼara	297,6	109,4	3,6
Furqat	71,9	42,5	0,9
Yozyovon	186,1	107,8	2,2

## 2023- yil yanvar-iyun oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da




Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha 2022- yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 205,6 % bilan Marg'ilon shahrida kuzatildi. Bu asosan "Uzwoolentex" MChJ QKda su'niy toladan ip-kalava ishlab chiqarishni tashkil etish faoliyatini kengaytirish hisobiga amalga oshirildi.

Shuningdek, Rishton tumanida ham yuqori o'sish sur'ati kuzatilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 166,4 %ni tashkil qildi. Bunday natijani "Rusuzbektex" MChJ XK sochiq va mato ishlab chiqarishni kengaytirish hisobiga tashkil etdi.

Quva tumanida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 165,8 %ni tashkil etgan bo'lib, bu natija "Bahodir Log'on Tekstil" MCHJ QKda paxtachilik klasterini kengaytirish bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.

## Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik va takror ishlab chiqarish tarkibi



Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 3 495,1 mlrd.so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 41,8 %ini tashkil etdi. Qurilish-montaj ishlari bo'yicha 4 381,0 mlrd.so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 52,5 %) va boshqa xarajatlarga 476,6 mlrd. so'm (5,7 %) o'zlashtirildi.

Shahar, tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 79,0 % yoki 344,0 mlrd. so'm bilan Beshariq tumanida kuzatildi.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Quva tumanida kuzatilib, 81,3 % ni yoki 210,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.


## Investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 4 532,6 mldr. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 54,3 % ini tashkil etdi.


Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Quva tumanida kuzatilib, u 80,2 % yoqi 207,6 mldr. so'mni tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 2020,6 mldr. so'mni tashkil etdi va respublikadagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 24,2 % ini tashkil etdi. Qolgan 21,5 %, ya'ni 1799,5 mldr. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.

**Shahar , tumanlar bo'yicha yangi qurilish ishlaringin ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da**




**Shahar, tumanlar bo'yicha kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya uchun investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da**



**Shahar, tumanlar bo'yicha boshqa yo'nalishlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da**




## Shahar, tumanlar bo'yicha mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da



## Shahar, tumanlar bo'yicha qurilish-montaj ishlariga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da



## Shahar, tumanlar bo'yicha boshqa xarajatlar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishslash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 3 689,5 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 44,2 % i o'zlashtirilgan.

**Qayta ishslash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:**


**KOKS VA NEFTNI QAYTA  
ISHLASH  
MAHSULOTLARNI  
ISHLAB CHIQARISH**  
262,1 mlrd. so'm  
Ulushi 3,1 %

**BOSHQA NOMETALL  
MINERAL  
MAHSULOTLAR  
ISHLAB CHIQARISH**  
809,5 mlrd. so'm  
ulushi 9,7 %


**TO'QIMACHILIK  
MAHSULOTLARI ISHLAB  
CHIQARISH**  
1 727,1 mlrd. so'm  
ulushi 20,7 %

Tog‘-kon sanoatida jami 7,8 mird. so‘m yoki viloyatida bo‘yicha jami investitsiyalar hajmining 0,1 % tashkil etdi.

### Viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan % da



Ishlab chiqarish sanoati  
Axborot va aloqa  
Tog‘-kon sanoati  
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi  
Turar-joy qurilishi



Boshqa faoliyat turlari  
Elektr, gaz bilan ta’minlash  
Qurilish  
Sog‘liqni saqlash  
Ta‘lim

## Shahar, tumanlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Shahar va tumanlar	Jami, mlrd. so‘m	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	O‘z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
Farg‘ona viloyati	3236,1	1641,1	111,6	1483,4
Farg‘ona sh.	500,8	230,4	111,6	158,8
Qo‘qon sh.	249,8	215,6	-	34,2
Quvasoy sh.	63,4	28,9	-	34,5
Marg‘ilon sh.	187,4	22,0	-	165,4
Oltiariq	118,7	22,8	-	95,9
Qo‘shtepa	241,4	-	-	241,4
Bag‘dod	85,9	17,1	-	68,8
Buvayda	65,0	39,3	-	25,7
Beshariq	224,6	223,6	-	1,0
Quva	125,8	124,9	-	0,9
Uchko‘prik	526,8	166,6	-	360,2
Rishton	116,9	76,4	-	40,5
So‘x	0,0	0,0	-	0,0
Toshloq	128,9	50,9	-	78,0
O‘zbekiston	158,6	136,2	-	22,4
Farg‘ona t	185,9	128,7	-	57,2
Dang‘ara	141,8	51,2	-	90,6
Furqat	34,4	28,1	-	6,3
Yozyovon	80,0	78,4	-	1,6

2023- yil yanvar-iyun oylarida 3236,1 mlrd. so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 38,7 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o‘zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 1676,4 mlrd. so‘mnini tashkil etdi va qolgan 1559,7 mlrd. so‘m xorijiy kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 3 124,6 mlrd. so‘m o‘zlashtirilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida 111,6 mlrd. so‘m xorijiy kreditlar o‘zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning 2022- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 90,4 % ni tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi




# IJTIMOY SOHA OBYEKTALARINI ISHGA TUSHIRISH

*Jami turar-joylar  
606,8 ming. kv.m*

*Yakka tartibda qurilgan  
turar-joylar  
606,8 ming kv.m*

*Namunaviy loyihalar asosida  
qurilgan turar-joylar  
- ming kv.m*

*Qishloq joylar ulushi*



Turar-joylarni ishga tushirish	Xonadonlar soni, birlik	Maydoni, ming kv.m
Farg'ona viloyati	2 467	606,8
Farg'ona sh.	243	68,1
Qo'qon sh.	287	67,6
Quvasoy sh.	68	14,2
Marg'ilon sh.	221	48,6
Oltiariq	162	41,8
Qo'shtepa	96	27,1
Bag'dod	102	25,2
Buvayda	142	40,8
Beshariq	134	15,6
Quva	172	52,5
Uchko'prik	68	15,8
Rishton	102	19,4
So'x	32	5,2
Toshloq	221	64,3
O'zbekiston	31	6,8
Farg'ona t	132	32,4
Dang'ara	113	26,4
Furqat	54	12,9
Yozyovon	87	22,2

## Farg'ona viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

Suv tarmog'i qurilishida jami 17,4 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, ulardan 48,3 %i aholi mablag'i, 23,0 %i Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi, Respublika budjeti 2,3%i va 26,4 %i boshqa manbalar hisobidan o'zlashtirildi.



**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

Aloqa telefoni: **(73) 241-98-42**